



## AUDITORLIK TEKSHIRUVI FAOLIYATI VA UNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMI, INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA FUNKSIONAL TARKIBLARI

## AUDIT ACTIVITIES AND ITS REGULATION MECHANISM, INSTITUTIONAL BASIS AND FUNCTIONAL STRUCTURE

<sup>1</sup>**Akromov Shohrux**  
**Shuhrat o'g'li**

<sup>1</sup>*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, "Bank ishi va buxgalteriya hisobi" kafedrası PhD, v.b. dotsenti. ORCID: 0009-0007-4309-2944*

Annotatsiya  
Abstract

*Uzb.* - Mazkur maqolada auditorlik faoliyatining mazmuni, uni tartibga solish mexanizmlari, institutsional asoslari hamda funksional tarkiblari yoritilgan. Auditorlik faoliyatining bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobotlar ishonchligini ta'minlashdagi ahamiyati, xalqaro audit standartlarining (ISA) roli va ularni O'zbekiston amaliyotiga joriy etish masalalari tahlil qilingan. Xorijiy va mahalliy olimlarning auditorlik faoliyatiga bergan ta'riflari keltirilib, tashqi va ichki audit tushunchalari ilmiy asosda yoritilgan. Auditorlik faoliyatini huquqiy, litsenziyalash, axloqiy, sifat nazorati va institutsional mexanizmlar orqali tartibga solish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, audit sohasidagi islohotlar hamda auditorlar va auditorlik tashkilotlari sonining o'sish tendensiyalari tahlil qilingan. Auditorlik faoliyatining funksional tarkiblari va ularning moliyaviy shaffoflikni ta'minlashdagi o'rni asoslab berilgan.

*Eng.* - This article examines the essence of auditing activity, its regulatory mechanisms, institutional foundations, and functional components. The role of auditing in ensuring the reliability of financial statements under market economy conditions, as well as the importance of International Standards on Auditing (ISA) and their implementation in Uzbekistan's practice, are analyzed. Definitions of auditing activity provided by foreign and domestic scholars are presented, and the concepts of external and internal audit are discussed from a scientific perspective. Particular attention is paid to the regulation of auditing activity through legal, licensing, ethical, quality control, and institutional mechanisms. The article also analyzes the regulatory framework governing auditing activity in the Republic of Uzbekistan, ongoing reforms in the audit sector, and trends in the growth of the number of auditors and audit organizations. The functional components of auditing activity and their role in ensuring financial transparency are substantiated.

**Kalit so'zlar:**  
**Keywords:**

❖ *auditorlik faoliyati, audit mexanizmi, tashqi audit, ichki audit, auditorlik tekshiruvi, auditorlik standartlari, institutsional asoslar, funksional tarkiblar, audit sifati nazorati, moliyaviy hisobot.*

❖ *auditing activity, audit mechanism, external audit, internal audit, audit engagement, auditing standards, institutional foundations, functional components, audit quality control, financial reporting.*

## Kirish.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarning tobora chuqurlashuvi, xususi sektor ulushining kengayishi hamda tashqi iqtisodiy aloqalarning jadallashuvi moliyaviy axborotlarning ishonchliligini ta'minlash, ularni nazorat qilish va baholash zaruratini kuchaytirmoqda. Ushbu jarayonda auditorlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etib, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlari haqqoniyligini ta'minlash, investorlar, kreditorlar va davlat organlari uchun ishonchli axborot manbaini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va uni samarali tartibga solish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Auditorlik faoliyati tarixan sanoatning rivojlanishi, aksiyadorlik jamiyatlarining ko'payishi va moliyaviy axborotlarga bo'lgan talabning ortishi natijasida shakllangan bo'lib, hozirgi kunda u xalqaro va milliy darajada mustahkam huquqiy hamda institutsional asoslarga ega. Xalqaro audit standartlari (ISA) auditorlik tekshiruvlarini yagona metodologiya asosida olib borish imkonini yaratib, audit sifatini va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. O'z navbatida, auditorlik faoliyati moliyaviy intizomni mustahkamlash, qonuniylikni ta'minlash va iqtisodiy shaffoflikni kuchaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tartibga solish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilikning takomillashtirilishi va xalqaro audit standartlarining amaliyotga joriy etilishi ushbu sohaning institutsional rivojlanishini ta'minlamoqda. Auditorlik faoliyatini huquqiy, tashkiliy, axloqiy va sifat nazorati mexanizmlari orqali tartibga solish, shuningdek, tashqi va ichki audit tizimlarining o'zaro uyg'unligi audit jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada auditorlik faoliyatining

mazmuni, uni tartibga solish mexanizmlari, institutsional asoslari va funksional tarkiblari xorijiy hamda mahalliy olimlarning qarashlari asosida yoritilib, O'zbekiston audit amaliyotidagi mavjud holat va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi.

## Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Auditorlik faoliyati iqtisodiyotni tartibga solish va moliyaviy nazoratni ta'minlashning muhim instituti sifatida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda auditorlik faoliyati, avvalo, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda manfaatdor tomonlarga xolis va asoslangan axborot taqdim etishga qaratilgan mustaqil faoliyat sifatida talqin qilinadi [1].

Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlarida auditorlik faoliyati ko'proq moliyaviy hisobotlarga bo'lgan ishonchni ta'minlovchi mexanizm sifatida izohlanadi. Jumladan, A. Arens va K. Loebbecke auditorlik faoliyatini moliyaviy hisobotlarda keltirilgan axborotlarning haqqoniyligini mustaqil baholash orqali foydalanuvchilarga to'g'ri iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi jarayon sifatida ta'riflaydilar [2]. Ushbu yondashuvda auditning asosiy vazifasi moliyaviy axborotlarning ishonchliligini oshirish orqali kapital bozorlarining samarali ishlashiga xizmat qilishdan iborat ekanligi ta'kidlanadi.

Buyuk Britaniyalik olim R. Adamsning ilmiy ishlarida auditorlik faoliyati xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini qonunchilik va amaldagi standartlarga muvofiqlik nuqtayi nazaridan tekshirish jarayoni sifatida talqin qilinadi [3]. Ushbu yondashuvda audit nafaqat moliyaviy nazorat, balki huquqiy muvofiqlikni ta'minlovchi institut sifatida ham namoyon bo'ladi.

Xalqaro professional tashkilotlar tomonidan berilgan ta'riflar auditorlik faoliyatining metodologik va institutsional jihatlarini chuqurroq ochib beradi. Xususan, IFAC tomonidan audit moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini hamda ularning haqqoniyligini baholashga qaratilgan mustaqil ekspertiza sifatida izohlanadi [4]. Ushbu ta'rifda auditning xalqaro standartlarga asoslanishi va mustaqilligi asosiy mezon sifatida ko'rsatiladi.

Ichki audit masalasida Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti (IIA) auditorlik faoliyatini tashkilot faoliyatiga qiymat qo'shishga qaratilgan mustaqil va obyektiv kafolat hamda maslahat berish faoliyati sifatida tavsiflaydi [5]. Ushbu yondashuv ichki auditning faqat nazorat funksiyasi bilan cheklanmasdan, balki boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

MDH mamlakatlari olimlarining ilmiy qarashlarida auditorlik faoliyati moliyaviy nazoratning mustaqil shakli sifatida yoritilib, uning huquqiy-me'yoriy asoslariga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, V. Kovalev auditorlik faoliyatini xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlari va hisob yuritish amaliyotini qonunchilik hamda standartlarga muvofiqligini tekshiruvchi mustaqil jarayon sifatida izohlaydi [6]. S. Baranov esa auditni tashqi foydalanuvchilar uchun ishonchli moliyaviy axborot taqdim etuvchi vosita sifatida baholaydi [7].

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda auditorlik faoliyatining O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati, uning xalqaro standartlar bilan uyg'unligi va milliy audit tizimini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Xususan, K. Axmedjonov va I. Yakubov auditorlik faoliyatining institutsional va kasbiy jihatlarini tahlil qilib, Buyuk Britaniya va AQShda faoliyat yurituvchi auditorlik institutlari tajribasini o'rganadilar [8]. Ularning ilmiy ishlarida auditorlik faoliyatining tashkiliy va metodik asoslari muhim o'rin egallaydi.

A. Karimov, F. Islomov va A. Avloqulov auditorlik faoliyatiga kengroq yondashib, auditorni faqat moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi mutaxassis emas, balki xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy va huquqiy muammolarni aniqlovchi professional maslahatchi sifatida talqin qiladilar [9]. Ushbu yondashuv auditning zamonaviy funksional mazmunini ochib beradi.

R. Dustmurotovning ilmiy ishlarida tashqi audit xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati va moliyaviy hisobotlarini mustaqil auditorlar tomonidan buyurtma asosida tekshirish hamda ularning ishonchligini baholash jarayoni sifatida yoritilgan [10]. Ichki audit bo'yicha esa A. Avloqulov va S. Yusupov ichki auditni boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai bo'luvchi ichki nazorat shakli sifatida izohlaydilar [11].

Umuman olganda, adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari auditorlik faoliyatining mazmuni, vazifalari va uni tartibga solish mexanizmlarini ochib berishda bir-birini to'ldiradi. Xorijiy adabiyotlarda auditning xalqaro standartlarga asoslangan metodologik jihatlar ustuvor bo'lsa, mahalliy tadqiqotlarda auditorlik faoliyatini milliy qonunchilik va iqtisodiy islohotlar bilan uyg'unlashtirish masalalari asosiy o'rinni egallaydi. Shu bois auditorlik faoliyatining institutsional asoslari, tartibga solish mexanizmlari va funksional tarkiblarini kompleks o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqot auditorlik faoliyatining mazmuni, uni tartibga solish mexanizmlari, institutsional asoslari va funksional tarkiblarini ilmiy jihatdan o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida auditorlik faoliyatining nazariy asoslari xorijiy va mahalliy olimlar qarashlari asosida tahlil qilinib, O'zbekiston audit amaliyotidagi mavjud holat baholandi.

Tadqiqotda umumilmiy va maxsus ilmiy usullar majmuasi qo'llanildi. Tahlil va sintez usullari auditorlik faoliyatining tarkibiy elementlarini aniqlashda, taqqoslash usuli esa tashqi va ichki audit hamda tartibga solish mexanizmlarini solishtirishda foydalanildi.

Mantiqiy va tizimli yondashuvlar asosida auditorlik faoliyatining iqtisodiy tizimdagi o'рни, huquqiy, tashkiliy va metodologik mexanizmlari kompleks tahlil qilindi. Normativ-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlar tahlili auditorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Mazkur bo'limda auditorlik faoliyatining amaldagi holati, uni tartibga solish

mexanizmlari, institutsional asoslari hamda funksional tarkiblarining samaradorligi tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida auditorlik faoliyatining nazariy yondashuvlari va O'zbekiston Respublikasida audit sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari o'zaro bog'liqlikda muhokama qilinadi.

1. Auditorlik faoliyatini tartibga solish mexanizmlarining tahlili. Auditorlik faoliyatini tartibga solish mexanizmlari huquqiy, tashkiliy, axloqiy va sifat nazorati elementlaridan iborat bo'lib, ular audit jarayonining izchil va samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Mazkur mexanizmlar auditorlik faoliyatining mustaqilligi, xolisligi va ishonchliligini kafolatlashga xizmat qiladi.



**1-rasm. Auditor faoliyatining mexanizmi<sup>1</sup>**

Ushbu rasm asosida tahlil shuni ko'rsatadiki, auditorlik faoliyati yagona tizim sifatida shakllanib, huquqiy tartibga solish mexanizmi asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Litsenziyalash va akkreditatsiya mexanizmi orqali auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan kasbiy talablar ta'minlanadi. Axloqiy kodeks mexanizmi auditorlarning mustaqilligi va manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga xizmat qilsa, audit sifatini nazorat qilish mexanizmi audit natijalarining ishonchliligini ta'minlashga qaratilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu mexanizmlarning o'zaro uyg'un ishlashi auditorlik tekshiruvlarining sifatini oshirish va moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. 2. Auditorlik faoliyatining institutsional asoslari tahlili. Auditorlik faoliyatining institutsional asoslari davlat organlari, kasbiy uyushmalar, xalqaro tashkilotlar, oliy ta'lim muassasalari va auditorlik tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslanadi. Ushbu institutlar auditorlik faoliyatining rivojlanishini va tartibga solinishini ta'minlaydi.

<sup>1</sup>Tadqiqot natijalariga muvofiq, muallif tomonidan tayyorlandi.




**2-rasm. Auditorlik faoliyatining institutsional asoslari<sup>2</sup>**

Mazkur rasm asosida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, davlat organlari auditorlik faoliyati uchun normativ-huquqiy baza yaratadi va nazorat funksiyasini bajaradi. Auditorlar palatasi va boshqa kasbiy uyushmalar esa auditorlarning manfaatlarini himoya qilish, kasbiy etikani rivojlantirish va malaka oshirishni tashkil etish bilan shug'ullanadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlar milliy audit tizimini xalqaro talablarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Natijalar muhokamasi shuni ko'rsatadiki, auditorlik faoliyatining institutsional asoslari qanchalik mustahkam bo'lsa, audit xizmatlarining sifati va ishonchliligi shunchalik yuqori bo'ladi.

3. Auditorlik sohasining rivojlanish tendensiyalari tahlili. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining rivojlanish darajasini baholashda auditorlar va auditorlik tashkilotlari sonining o'sish dinamikasi muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

**Auditorlik tashkiloti va auditorlar soni yillar kesimida**



**3-rasm. Auditorlik tashkiloti va auditorlar soni<sup>3</sup>**

Mazkur rasm asosida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, 2019–2025-yillar davomida auditorlar va auditorlik tashkilotlari sonining izchil o'sishi kuzatilgan. Bu holat auditorlik xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotganini, shuningdek, audit sohasida

amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy samara berayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2021–2022-yillarda keskin o'sish kuzatilgani audit xizmatlarining iqtisodiyotdagi ahamiyati oshganidan dalolat beradi.

<sup>2</sup>Tadqiqot natijalariga muvofiq, muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>3</sup>Muallif tadqiqotlari natijasida tayyorlandi.

4. Auditorlik faoliyatining funksional tarkiblari tahlili. Auditorlik faoliyati rejalashtirish, axborot yig'ish, baholash,

dalillar asosida xulosa chiqarish, hisobot berish va sifat nazoratidan iborat funksional tarkiblarga ega.



**4-rasm Auditorlik faoliyatining funksional tarkiblari<sup>4</sup>**

Mazkur rasm asosida tahlil shuni ko'rsatadiki, auditorlik faoliyatining har bir funksional tarkibi audit jarayonining muayyan bosqichini ifodalaydi va ularning izchil amalga oshirilishi audit sifatini ta'minlaydi. Funksional tarkiblarning uzviy bog'liqligi auditorlik xulosalarining asoslanganligini oshiradi hamda manfaatdor tomonlar uchun ishonchli axborot taqdim etishga xizmat qiladi.

5. Tahlil natijalarining umumiy muhokamasi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, auditorlik faoliyati O'zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy nazorat va shaffoflikni ta'minlovchi muhim institut sifatida shakllanib bormoqda. Tartibga solish mexanizmlari, institutsional asoslar va funksional tarkiblarning rivojlanishi audit xizmatlarining sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Natijalar muhokamasi shuni ko'rsatadiki, auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, audit sifati ustidan nazoratni kuchaytirish va kasbiy institutlar faoliyatini rivojlantirish audit tizimining

barqaror ishlashini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Xulosa va takliflar.**

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, auditorlik faoliyati zamonaviy iqtisodiy tizimda moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy intizomini mustahkamlash hamda manfaatdor tomonlar uchun ishonchli axborot manbaini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Auditorlik faoliyatining mazmuni va mohiyati xorijiy hamda mahalliy olimlar qarashlari asosida tahlil qilinib, audit nafaqat nazorat, balki maslahat va boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi mexanizm ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida auditorlik faoliyatini tartibga solish mexanizmlari – huquqiy tartibga solish, litsenziyalash va akkreditatsiya, axloqiy kodeks, audit sifatini nazorat qilish hamda moliyaviy hisobot standartlariga muvofiqlik mexanizmlari o'zaro bog'liq holda shakllanganligi asoslab berildi. Ushbu

<sup>4</sup>Muallif tadqiqotlari natijasida tayyorlandi.

mexanizmlarning izchil ishlashi auditorlik tekshiruvlarining sifati va ishonchliligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi tahlil natijalarida o'z aksini topdi.

Shuningdek, auditorlik faoliyatining institutsional asoslari davlat organlari, kasbiy uyushmalar, xalqaro tashkilotlar, oliy ta'lim muassasalari va auditorlik tashkilotlari faoliyati orqali shakllanishi aniqlandi. Ushbu institutlar o'rtasidagi hamkorlik audit tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. 2019–2025- yillar davomida auditorlar va auditorlik tashkilotlari sonining o'sishi O'zbekistonda audit sohasiga bo'lgan talabning ortib borayotganini va olib borilayotgan islohotlarning amaliy samaradorligini ko'rsatadi.

Auditorlik faoliyatining funksional tarkiblari – rejalashtirish, axborot yig'ish, baholash, dalillar asosida xulosa chiqarish, hisobot berish va sifat nazorati – audit jarayonining mantiqiy izchilligini ta'minlab, auditorlik xulosalarining asoslanganligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Umuman olganda, auditorlik faoliyati O'zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy nazorat tizimining ajralmas bo'g'ini sifatida shakllanib borayotgani va uning xalqaro audit standartlari asosida rivojlanishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi tadqiqot natijalarida tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni bildirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi mexanizmlarni xalqaro audit standartlari talablariga to'liq mos holda yanada takomillashtirish, ayniqsa audit sifatini nazorat qilish mexanizmlarining samaradorligini oshirish zarur.

2. Auditorlik faoliyatining institutsional asoslarini mustahkamlash maqsadida davlat organlari va kasbiy uyushmalar o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish, auditorlarning kasbiy malakasini oshirish tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

3. Auditorlik faoliyatida tashqi va ichki audit o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni ta'minlash orqali audit jarayonlarining samaradorligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda audit natijalaridan kengroq foydalanish lozim.

4. Auditorlik faoliyatining funksional tarkiblarini amaliyotda izchil qo'llash, xususan rejalashtirish va sifat nazorati bosqichlariga alohida e'tibor qaratish audit tekshiruvlari natijalarining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

5. Auditorlik faoliyatini rivojlantirish jarayonida ilmiy tadqiqotlar va ta'lim muassasalari rolini kuchaytirish, auditorlik sohasida ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Investopedia. *Audit tushunchasi*.
2. Arens A., Loebbecke J. *Auditing: An Integrated Approach*. – Prentice Hall, 2000 y.
3. Adams R. *Auditing*. – London: Thomson Learning, 2002 y.
4. IFAC. *Handbook of International Quality Control, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements*. – New York, 2020 y.
5. IIA. *International Professional Practices Framework (IPPF)*, 2017 y.
6. Ковалев В.В. *Финансовый учет и аудит*. – Москва: Финансы и статистика, 2019 г.
7. Баранов С. *Аудит*. – Москва: Дело и Сервис, 2015 г.
8. K. Axmedjanov, I. Yakubov: *Audit asoslari/ darslik/ Toshkent-2010/ 291 bet*.
9. A. Karimov, F. Islomov va A. Avloqulov: *Xalqaro audit/ darslik/ Toshket-2015 / 397 bet*
10. Dustmurotov R. *Auditorlik faoliyati nazariyasi*.
11. Avloqulov A.Z. *Xalqaro audit*. – Toshkent: TFI, 2017.